6-ma’ruza **Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish.**

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiya, elektron doska,interaktiv, audio,elektron darslik.*

Ta‘lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirgan kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta’lim maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan imkoniyatlar o‘z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta’limtarbiya berishni, o‘quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o‘z navbatida har bir o‘qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi. Boshlang’ich ta’lim ta’lim-tarbiyaning poydevoridir.

Poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa imorat shunchalik chidamli bo‘lganidek, mukammal boshlang‘ich ta’lim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda va ta’limning keyingi bosqichlarida hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilar savodini chiqarishda, ularga mustahkam bilim berish va ularda zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda barcha imkoniyatlarni ishga solishlari, ilk ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli olib borishi lozimdir. Bu vazifa har bir o‘qituvchi zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi va bu mas’uliyatni to‘laqonli his etgan holda mehnat qilish zamirida esa ijodkorlik, izlanish,ilg‘or va innovatsion texnologiyalarni, ilg‘or ish tajribalarini, samarali didaktik materiallarni o‘qitish jarayonida mahorat bilan qo‘llash faoliyati yotadi. Hayotimizning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, yoshlarga ta’lim va tarbiya berishning hozirgi bosqichi bu jarayonga axborot-kommunikatsion texnologiyalarining, kompyuter texnikasining keng ko‘lamda kirib kelishi bilan xarakterlanadi Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining amalga oshirilishi tufayli bugungi kunda deyarli barcha maktablar kompyuter texnikasiga ega bo‘ldilar va maktab jamoalari ta’lim

jarayonida mazkur texnika imkoniyatlaridan unumli foydalanmoqdalar. Respublikamizda ta’lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish uchun tegishli ilmiy-metodik bazani yaratish va mustahkamlash jarayoni ketayotir.

Yaratilgan va ta’lim muassasalariga qadar yetkazib berilayotgan elektron darsliklar, ayrim olingan mavzular bo‘yicha dars loyihalari, slaydlar to‘plamlari ,Xalqaro baholash dasturlari bo ‘yicha o‘quvchilarni zamon talablari bo ‘yicha baholash bo‘yicha metodik qo‘llanmalar fikrimizning dalilidir. Umumiy o‘rta ta’limning kompetensiyaviy yodashuv asosidagi davlat ta’lim standartlarida har bir o‘quvchining tayanch va fanga oid kompetensiyalarini umumjahon ta’lim standartlari doirasiga olib chiqish vazifasi qo’yilgan. O‘quvchining savodxonlik darajasini oshirishni esa zamonaviy axborot texnologiyasisiz tasavvur etib bo’lmaydi. O‘quvchining savodxonlik darajasini oshirishda ona tili ta’limi muhim omillardandir. Ona tilini o‘qitishda axborot texnologiyalardan unumli foydalanish ta’lim samaradorligini beqiyos oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’limning har ikkala bosqichida ona tili ta’limi samaradorligini oshirish uchun qilinadigan sa’yi-harakatlar bugungi kunning ham talabidir desak yanglishmaymiz.

Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta’lim standartlarida o’quvchining savodxonligini oshirish maqsad qilib belgilangan ekan, bunga boshlang’ich sinflardanoq jiddiy e’tibor qaratish lozim. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning keng imkoniyatlari yaratilgan va bular sirasiga o‘quv adabiyotlarining yangi avlodlari: elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar, qisqa interaktiv o‘quv dasturlari, audio qo‘llanmalar, multimediali darslarni kiritish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ona tili darslarida o‘quvchilarning savodxonligini oshirishida eng qulay va zamonaviy usullardan biri-dars jarayonida multimedia darslaridan foydalanish, o‘quvchilarda ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi avvaldan dasturlashtirilib disklarga yozilgan o’quv topshiriqlari yordamida og‘zaki va yozma matnlar yaratishga mo‘ljallangan kommunikativ modullar asosida ishlashdir.

Boshlang’ich sinf ona tili darslarida so‘z yasash, gap tuzish va matn yaratishga mo‘ljallangan kommunikativ modullar o‘quvchilarni aniq, jadal fikrlashga, oxirgi maqsad sari intilishga, lozim bo’lsa o‘z fikrini himoya va isbot qilishga o‘rgatadi, o‘z nutqiy mahoratini mustaqil rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur fikrlarning rivoji uchun imkoniyat yaratish esa, yana va yana o‘qituvchiga, uning pedagogik mahoratiga, zamonaviy texnika vositalarini tushunishi va uni o‘rganilayotgan mavzu doirasida tadbiq eta bilishiga bog‘liqdir.

So‘zimizning isboti sifatida 4-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirishga mo‘ljallangan o‘yin topshiriqlardan namuna keltiramiz. 1- topshiriq. Berilgan maqollarni multimedia ekraniga tering. Ifodali o‘qing va ma’nolarini sharhlang. 1. Odam bo‘laman desang, Ona tilingni sev. 2. Mehnat qilgan elda aziz. 3. Til bilgan el biladi. 4. Ona-yurting, oltin beshiging. 2-Topshiriq. Odam, yurt, oltin so‘zlariga yaqin ma’noli so’zlarni toping. Eng ma’qulini tanlab daftaringizga ko‘chiring. Yoki “Davom ettir ” didaktik o‘yinidan foydalanish mumkin. Monitordan o‘quvchilar biror gapning boshlanishini o‘qiydilar, keyin o‘zlari jumlalarni oxiriga yetkazadilar. Masalan:

1. qish fasli tugagach, bahor fasli kirib keldi.

2. bahor fasli oyidan boshlanadi

3. bahor fasli oylaridan iborat.

4. issiq o‘lkalardan qaldirg‘och, kabi qushlar uchib keladi. Bolalar nuqtalar o‘rniga quyidagi so‘zlarni qo‘yib davom ettiradilar. 1. Qish fasli tugagach, bahor fasli kirib keldi. 2. Bahor fasli mart oyidan boshlanadi 3. Bahor fasli mart, aprel, may oylaridan iborat. 4. Issiq o‘lkalardan qaldirg‘och, jiblajibon, turna kabi qushlar uchib keladi. Bunday topshiriqlarning miqdori, mazmuni va shakli turlicha bo‘lishi tabiiy. O‘qituvchi buni darsning xarakteri, maqsadi. Dars jarayonidagi ehtiyoj va imkoniyatga qarab belgilaydi. Dars jarayonida yozilishi va tahlil qilinishi lozim bo‘lgan maqollar o‘qituvchi tomonidan diktafonda qiroat qilinadi. O‘quvchilar eshitganlarini imlo qoidalari hamda tinish belgilariga rioya qilgan holda kompyuter ekraniga terishi lozim. Tayyor maqollar o‘qituvchi tomonidan qiroat bilan mikrofonda o‘qiladi, boshqalar esa eshituv asbobi (naushniklar) orqali qiroatni

tinglaydilar. O‘qilayotgan maqollarni esa multimediya ekranida ko‘radilar va tanqidiy fikr bildiradilar. Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchilar so‘zlarni to‘g’ri va chiroyli talaffuz qilishga, imloviy xatolardan saqlanishga, jumlani shoshilmay qiroat bilan o‘qishga harakat qiladilar. Bir yo‘la qiroat san’ati sirlaridan ham bahramand bo‘ladilar. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda jadal fikrlash, zamonaviy texnika bilan erkin ijodiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. O‘quvchida tez bilib olishga, ixcham va jadal fikrlashga, o‘z bilim va malakasini darhol namoyish yetishga ishtiyoq, o‘z bilimiga ishonch ortadi. Qisqa qilib aytganda, kompyuter bilan muloqot o‘quvchini o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonining sub’ektiga aylantiradi. Kompyuter dasturi uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga o‘rgatadi.Bunday samara esa bugungi kunda ayni muddaodir. Demak, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirishni davr talab qilayotir.Bu talabga javob bera olish uchun o‘qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, yuksak mahorat bilan qo‘llay olishi, o‘rganiladigan materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni to‘g’ri tanlay olishi lozim. Bu boshlangich sinflarda, ayniqsa muhim.

Kompyuter bugungi kunda axborotlarni olish va qayta ishlashning muhim vositasi bolib, uning tezkorligi tasavvurni lol qoldiradi. Shuning uchun ham bu vositalarning o‘quv jarayoniga joriy etilishini hozirgi davrda tabiiy hol deb qarash joiz boladi. Didaktik darslik bo‘yicha qollanilayotgan kompyuter jarayonlarini ma’lum tizimga solishiga urinib ko‘raylik. Multimediya texnologiyalar tufayli o‘quvchilarda qiziqish va manfaatdorlik tug‘diradi. Fikrlash faoliyatini faollashtirib, o‘tilgan materialni samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Amalda namoyish etilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va ko‘rsata olish imkonini beradi. Materialni o‘rganish sur’ati bilan bir qatorda uni tushunish, anglash o‘qitishni yakka-yakka (individual) shaklda o‘tkazish imkonini beradi. Matematika darslarida o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini shakllantirish maqsadida kompyuterdan foydalanish masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. O‘qituvchi o‘z mashg‘uloti davomida o‘quvchilarga ma’lum hajmdagi mashg‘ulotlarni beribgina qolmay, ularda turli vositalardan, jumladan, kompyuterdan foydalanib, mustaqil ravishda boshqa

ma’lumotlarni izlab topishga ishtiyoq tug‘dirishni shakllantirishga erishishi lozim. O‘quvchilarning mustaqil ravishda bilishga harakati yaxshi tashkil etilgan bo‘Isa, mashg‘ulot shuncha samarali va sifatli o‘tadi. Kompyuter o‘quvchilarni mustaqil ish olib borish imkoniyatini oshiradi, o‘qituvchi esa o‘tilgan materialni o‘zlashtirish jarayonini turli shakllarda nazorat qilishi mumkin.

“Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” - matematika fani o‘qituvchilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u matematika fani o‘qituvchilariga ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Fanlarni o‘rganish uchun kerak bo‘ladigan ba’zi mobil ilovalardan namunalarini ko‘rib chiqamiz. “Matematik topqirlik” og‘zaki hisob-kitob qobiliyatini o‘stirish ilovasi. Ilova tez hisoblash uchun mavjud algoritmlarni aks ettiradi. Har bir o„quvchi ularni o„rganishi mumkin, so‘ngra nazariy bilimlarni amaliy mashqlarda mustahkamlashi, shu tariqa og‘zaki hisoblash amaliy tajribalarini boyitishi mumkin. Bu ilovani yaratuvchilari og‘zaki hisobda tarmoqdagi boshqa foydalanuvchilar bilan raqobat qilish imkonini ham hisobga olishgan [1; 2]. Matematika fanini o‘qitishda noan’anaviy ta’lim yondashuvlari - agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u innovatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya (inglizcha “innovatsion” – yangilik kiritish) deb muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatga aytiladi. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo‘yicha o‘quvuslubiy majmua ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limga innovatsion ta’lim deyiladi. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta’lim innovatsiyalari –

ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat deb aytish mumkin. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan ta’limtarbiya samaradorligini oshirish jahon ta’lim standartlari darajasida bilim berish hamda ta’lim innovatsiyalarni joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma’naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalangan, o‘z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni kamolga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasi xususan har bir fan o„qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini tubdan o‘zgartirishi lozim. Respublikamiz miqyosida umumta’lim maktablariga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, maktablarimizni jahon standartlariga mos holda jihozlar bilan ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimi bo‘g‘inidagi ta’lim muassasalari, shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari oldida yangi muammolar, ya’ni o‘qitilayotgan fanning o‘zlashtirish sifatini oshirish vazifasi turibdi. Bu borada matematika fanini o‘qitishda ham turlicha metodlar qo‘llanilmoqda, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad matematika fanini o‘qitishni taqdim o‘zlashtirishdan iboratdir. Matematika fanini o‘qitishda, undagi mavzularni tushuntirishda va ko‘rgazmalilikni tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan ham foydalanish mumkin. Axborot texnologiyalari vositalaridan biri multimedia muhitida har xil animatsiyalar, dasturlar orqali matematikani o„qitishni tashkil qilish mumkin. Qo‘yilgan talablar bo‘yicha axborot texnologiyalarining multimedia vositalari asosida dars jarayonini tashkil qilish pedagog o‘qituvchilaming yumushini osoniashtirib, o‘quv jarayonini boshqarish, uning samaradorligini yanada ko‘tarishga erishiladi. Shu bilan bir qatorda ta’lim muassasasi rahbariyatiga talaba, guruh, mutaxassisliklar bo‘yicha test natijalarini ko‘rib borish va ulaming o‘zlashtirish natijalariga baho berish, o‘qituvchilaming ma’ruza matnlari va boshqa mustaqil ishlariga mo‘ljallangan materiallarining tayyorlash sifatiga baho berish, multimedia vositalari asosida laboratoriya ishlarini bajarish uchun kompyuterda modellashtirilgan virtual stendlar joriy etish, kursni o‘zlashtirish bo‘yicha uslubiy

materiallami tayyorlash uchun takliflar ishlab chiqish kabilami amalga oshirish imkoniyatini beradi. Axborot texnologiyalarining multimedia vositalari o‘quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir: differentsial va individual o‘qitish jarayonini tashkil qilish; o‘qish jarayonini baholash, teskari (qarshi) aloqa bog‘lashi; o‘zini-o‘zi nazorat qilish va tuzatib borishi; o‘rganilayotgan fanlami namoyish etishi va ulami dinamik jarayonini ko‘rsatishi; fan ma’ruzalarida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi; o‘quvchi-talabalarga fanni o‘zlashtirish uchun strategik ko‘nikmalar hosil qilishi va hokazo [1; 2]. Shuningdek, multimedia vositalarining amaliy tomoni ulardan o‘quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta’lim tizimida o‘quv jarayoni uchun ma’iumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi. Fanlarning elektron variantlarini yaratish masalasi, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish va zamonaviy dasturiy ta’minotlar yaratish masalasi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf (3-sinf) matematika darslari uchun elektron ishlanmalar yaratish metodikasi, darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish va shu asosida darslar o‘tish metodikasi ishlab chiqilgan.

Yaratilgan elektron ishlanmada sarvaraq, mundarija, o‘quv materiallarini bayon qilish sahifalari mayjud bo‘lib, bilimlami nazorat qilish uchun test va topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Elektron ishlanmaning asosiy bo‘limi matn, grafik, animatsiya va test dasturlarini o‘z ichiga olgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf matematika darslarini yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘tishda kompyuterlardan foydalanib, multimedia imkoniyatlari asosida dars o‘tish noan’anviy dars turlaridan biri hisoblanadi. Ishda keltirilgan elektron ishlanma orqali boshlang‘ich 3-sinf matematika darslarini kompyuter imkoniyatlaridan foydalanib maktabda dars o‘tganimizda, olingan natijalar bo‘yicha quyidagi xulosalarga keldik:

elektron ishlanma imkoniyatlaridan foydalanib, o‘quvchilarga mavzuni to‘liq tushuntirish imkoniyati oshadi;

harakatli tasvirlar va animatsiyalar o‘quvchilaming tasavvurlarini kengaytitish uchun muhim rol o‘ynaydi;

dars o‘tishda vaqtdan yutish imkoniyati tug‘ildi, ya’ni mavzuning tushuntirilishiga va o‘quvchilaming mavzuni o‘zlashtirishlariga kam vaqt sarflandi;

irishga, o‘quvchilar o‘rtasida savol-javob o‘tkazishga ko‘proq vaqt qoladi;

yuqoridagilar asosida, ulaming bilim, ko‘nikma va malakalari oshadi; barcha o‘quvchilami baholashga imkon tug‘iladi, ya’ni misol va masalalami yechishga baho qo‘yilsa, uyga berilgan vazifalarni bajarishlariga qarab, test topshiriqlarini bajargach, ular jamlanib baho qo'yiladi;

o‘quvchilarning o‘zlari mustaqil o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratiladi, ya’ni o‘quvchi ushbu elektron ishlanmadan foydalanishi o‘qituvchi ishtirokisiz mustaqil ravishda multimediya imkoniyatlaridaidan foydalanib mavzuni o‘rganishi va yaxshi o‘zlashtirishi mumkin.

Hozirgi kompyuterlashgan internet tizimi tezlik bilan rivojlanayotgan zamonning yosh avlodlariga zamonga moslashgan holda yangicha dars tizimini joriy qilish lozimdir, chunki maktabdan tashqaridagi hayotda hamma internet tarmog‘i bilan birga yashaydi. O‘sib kelayotgan avlodni barkamol va aqlli qilib tarbiyalashda avvalo maktab tizimini tubdan o‘zgartirib har bir fanlar uchun (SMART) xonalarni tashkil qilsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. O‘quvchilarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda planshetlar bilan darslar o‘tilishini ta’minlasak va matematika fanidagi barcha mavzularni (SMART) xonalarda o‘quvchilarni planshetlarda mustaqil ishlashlarini taminlasak bilim olishni samaradorligiga erishishimiz mumkin. Xonalarda ko‘proq o‘quvchilar ushlab ko‘rib misollarni bajaradigan jihozlar bilan jihozlash kerak. Bolalar ushlab, amalda bajarsalar har bir misol va mashqlarni tezda o‘zzlashtiradilar. Har bir bola SMART telefon yoki kampyuter texnologiyalaridan foydalangisi, uning ishlash funksiyalari, imkoniyati darajasidagi barcha o‘yin va pragrammalarni tez o‘rganib olishga qiziqadi. Demak biz matematikani bolalarga tez va sifatli o‘rgata oladigan elektron programma ishlab chiqishimiz kerak. Uy vazifalarini ham o‘zlari qiziqib tayyorlashadi. Uning ichida o‘yinli va mulohaza qilishga majbur qiladigan masalalar, tezkor, sodda misollarning

javoblarini og‘zaki aytishadigan bo‘lishi kerak. Bu programma ham darsda foydalana olinadiga ham darsdan tashqarida mustaqil foydalanish uchun yaratiligan bo‘lishi kerak. O‘yinli qismida labirintdan chiqish o‘inini o‘ynash bilan bir qatorda labitintdan chiqish uchun qancha vaqt sarflanganini, nechcha qadam yurganini, umumiy qancha klm yurganini to‘g‘ri ko‘rsatishi shart bo‘ladi, to‘siqlaridan o‘tish uchun misollar beriladi javobini to‘g‘ri yechsa to‘siqlar olinadi. Noto‘g‘ri javob berilsa to‘siqlar olinmaydi misollarni yana qayta yechishga to‘g‘ri keladi, barcha shartlarini to‘g‘ri bajarishmasa past ko‘rsatkich olishi mumkin bo‘ladi. O‘yinni o‘ynash bilan birga bola aqlini ishlatishga majbur bo‘ladi, chunki qadamlarini sanab, vaqtni ham hisoblab, misollarni to‘g‘ri yechib borishiga to‘g‘ri keladi. Bu programmaning maqsadi vaqtni, kilometrni hisoblashni o‘rganish va darsalardan uzoqlashmagan holda matematik misollarni yechishdan iborat bo‘ladi. Bolalar uchun ham madaniy hordiq beruvchi o‘yin ham darslik vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”giPF-5712-son Farmoni

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187- sonli qarori

3. http://www.multimedia.uz/uzb/article76.html

4. Divanova M.S., Alimova S.Q., Alimov O.N. Boshlang„ich sinflarda matematika fanini o„qitishda axborot texnolog iyalaridan foydalanish, 46 bet.

5. Jumayev M.E., Z.G„. Tadjiyeva. Boshlan„gich sinflarda matematika o„qitish metodikasi “Fan va texnlogiya”, 2005. 312 bet.